



## BOTIR ZOKIROV IJODINING O'ZBEK MILLIY MADANIYATIDA TUTGAN O'RNI

*Ruslan Asliddinovich G'aybullayev*

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti 12-1 mad 19 guruhi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Botir Zokirov hayot faoliyati, uning ijodiy yo'nalishi va estrada sohasidagi qilgan revolyutsiyasi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Yoshlik, Ra'no, Arabcha tango, Zokirovlar sulolasi.

O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov 1936-yil 26-aprelda tavallud topgan. Uning ijrosidagi qo'shiqlar xalqning qalbidan chuqur joy olgan, qachon yangramasin kishiga o'zgacha xush kayfiyat bag'ishlaydi. Botir Zokirov 1956-yil "Yoshlik" yoshlar ansamblini tashkil etib, katta shuhrat qozongan edi. U kuylagan opera ariyalari, o'zbek xalq qo'shiqlari, xorij shlyagerlari o'z davrida dunyo bo'ylab tarqaldi O'zbek estrada san'atining rivoji Botir Zokirov ijodi bilan bog'liqligini ta'kidlash o'rinli. Shuningdek, B.Zokirov tasviriy san'at, rejissura san'atlarida ham iqtidorli bo'lgan.

Botir Zokirov 1965-yilda O'zbekiston xalq artisti unoviniga sazovor bo'ldi. O'zbek zamonaviy professional estrada qo'shiqchi (ijrochi)ligining asoschisi. Toshkent davlat konservatoriyasining vokal fakulteti, Toshkent davlat teatr va rassomlik san'ati institutining rejissyorlik fakultetida ta'lim olgan. "Yoshlik" ansambli, O'zbek davlat estrada orkestri yakkaxon xonandasi sifatida faoliyat yuritgan. Toshkent myuzikxollining tashkilotchisi, yakkaxoni va badiiy rahbari bo'lib ham faoliyat yuritgan. Botir Zokirov o'ta ta'sirchan tembrli, shirador ovozga ega bo'lgan. Ijro etgan qo'shiqlarining aksariyatini tugal va teran lirik-dramatik asar darajasiga ko'tara olgan. Repertuaridagi qator qo'shiqlar kompozitorlar tomonidan Botir Zokirov hamkorligida, uning ovoziga mo'ljallab yaratilgan. Botir Zokirovning diltortar taronalari va go'zal honishi barchani o'ziga rom etib kelgan. Uning ijrosidagi "Yor kel", "Arabcha tango", "Ra'no", "Majnun monologi", "Seni eslayman", "Kechalar yulduz sanab" va boshqa ko'plab qo'shiqlari oradan yillar o'tsa-da, muxlislar hamon sevib tinglashadi.



Botir Zokirov nafaqat hushovoz xonanda, balki mahoratli rassom, yozuvchi va tarjimon ham bo'lgan. U rassom sifatida "Saron", "Gumbazlar", "Bolalik ko'chasi" kabi asarlar yaratgan. Ko'plab ocherk, hikoya, she'rlar muallifi. Shuningdek, Botir Zokirov A.d ye Sent-Ekzyuperining



“Kichik shahzoda”, Ye.Shvarsning “Soya” asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. 1984 yilda Botir Zokirovning sog‘lig‘i yomonlashib boradi. Shifokorlar unga jigar sirrozi so‘nggi bosqichi tashhisini qo‘yishadi. 1985 yilning 23 yanvarida O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov vafot etadi. Xonanda vafotidan so‘ng 2000 yilda O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimov buyrug‘iga asosan “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlanadi.

### **Botir Zokirov Ra’no qo‘shiq matni**

Barnolar ichra barno – Ra’no,  
Gulmisan, gulyormisan,  
Gulmisan, gulyormisan?  
Oshiqqa dildormisan?  
Hamma gullardan a’lo – Ra’no,  
Hamma gullardan a’lo – Ra’no, Ra’no.

Ne, ne yigitlar shaydo – Ra’no,  
Bir kulib kalovlatding,  
Qalbimni olovlatding, Ra’no.  
Xumor ko‘zlari shahlo – Ra’no,  
Xumor ko‘zlari shahlo – Ra’no, Ra’no.

Hayoti to’la ma’no – Ra’no,  
Sinmasin yoshlik o’ti,  
Sinmasin yoshlik o’ti,  
Ko’chamdan turgin o’tib,  
Baxtingdan baxtim paydo, Ra’no,  
Baxtingdan baxtim paydo, Ra’no, Ra’no.

Barnolar ichra barno – Ra’no,  
Gulmisan, gulyormisan?  
Oshiqqa dildormisan, Ra’no?  
Hamma gullardan a’lo – Ra’no,  
Hamma gullardan a’lo – Ra’no, Ra’no.

Bu qo‘shiq ilk marta 1964 yilda suratga olingan «Qo‘shiq suratini chiz» degan musiqaviy filmda ijro qilindi. Qo‘shiq ijrochisi Botir Zokirov bu qo‘shiqni ijro etar ekan, rasm chizadi. Shahlo ko‘z go‘zallar rasmini ko‘mir bilan oq qog‘ozga epcillik bilan chizgan Botir Zokirov g‘amgin ohangda gul va chechaklar haqida qo‘shiq kuylar edi. Ham rasm chizib, ham qo‘shiq kuylaëtgan rassom 60-yillar tomoshabinini mutlaq maftun qilgan edi. Botir Zokirov ishtirokidagi eng mashhur filmlardan biri “Dahoning yoshligi” bo‘lib, 1982 yil rejissor Elyor Ishmuhamedov tomonidan suratga olingan. Sevimli xonandamiz bilan birga Baxtiyor Ixtiyorov, Furqat Fayziyev,



Ato Muhamadjonov, Ra'no Kubayeva, Vitautas Tomkus, Vasiliy Chxaidze, Djanik Fayziyev, Shuhrat Ergashev, Murod Rajabov, Leonard Babaxanov, Konstantin Butayev, Maqsud Mansurov, Nabi Rahimov, Hamza Umarov, Rustam Urazayev, Javlon Hamroyev, Juna Davitashvili kabilar suratga tushishgan. Botir Zokirov respublika bo'ylab ko'p safar qilgan. Zokirovlar oilasida barcha iqtidorli: Naufal Zokirov, Luiza Zokirova, Faruh Zokirov. Botir Zokirov hayotdan uzrsiz barvaqt ko'z yumdi. Yoshligidan og'ir betob bo'lgan va go'yoki, oz muddat ichida istagan barcha ishlarini bajarishga ulgurishga shoshganday. 1985 yil 23 yanvar kuni Toshkent ahli qo'shiqchi bilan vidolashdi. U Chig'atoy nodir qabristonidan qo'nib topdi. O'zbekiston Respublikasining sobiq Prezidenti Islom Karimov farmoni bilan Botir Zokirov o'limidan so'ng "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan. Shuningdek, uning eng katta mukofoti — butun xalq muhabbati va ulug' xotirasi bor.

O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov ijodiy merosining yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi ulkan ahamiyatini inobatga olib hamda tavalludining 85 yilligini keng nishonlash va xotirasini abadiylashtirish maqsadida Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tasarrufidagi maktablarda turli tadbir va musiqiy-badiiy kechalar tashkil etildi.

Jumladan, Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabining 8-sinf o'quvchisi Sultonmurodov Muhammadamin O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov siymosini gavdalantirdi. Shuningdek, Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi 8-sinf o'quvchisi Nazarova Asal ijrosida O'zbekiston xalq artisti Gavhar Zokirova ijrosi orqali Botir Zokirovni xotirladi. Botir Zokirovning dilrabo qo'shiqlari barchani o'ziga rom etib kelgan. Uning ijrosidagi ko'plab qo'shiqlar yillar o'tsa-da, hamon sevib tinglanadi.

Toshkent shahridagi Prezident maktabi 6-sinf o'quvchisi Shavkatjon Qodirov ham O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov ijrosidan ilhomlanib, "Umid" nomli qo'shig'ini ijro etdi. Shuningdek, ushbu diltortar taronaga maktab o'quvchilari videolavha tayyorlash. Milliy estrada san'atimiz asoschilaridan biri, zamonaviy o'zbek madaniyatini dunyo miqyosida keng targ'ib etish, ijodiy va ijtimoiy faoliyati bilan xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga beqiyos hissa qo'shgan buyuk san'atkorning xotirasi qalblarda abadiy muhrlangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Ражабов, Т. И., & Ибодов, У. Р. (2020). Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки. *Вестник науки и образования*, (21-2 (99)), 55-58.
2. Ражабов, Т. И. (2020). тическая классификация узбекской детской народной музыки и игр. *Наука, образование и культура*, (3 (47)).
3. Ражабов, Тухтасин Ибодович. "Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников." *Вестник науки и образования* 5-2 (83) (2020).
4. Ражабов, Тухтасин Ибодович. "тическая классификация узбекской детской народной музыки и игр." *Наука, образование и культура* 3 (47) (2020).
5. Ражабов, Тухтасин Ибодович. "УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ ДЕТСКИМ ФОЛЬКЛОРНЫМ ПЕСНЯМ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ." *Наука, техника и образование* 2-2 (77) (2021): 84-86.